



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasi mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasi dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdakov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR

Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti asistenti
ashirovagulchehra1005@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/271

Annotatsiya: Budjet tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi ularning moddiy-texnika bazasiga, ayniqsa, asosiy vositalarning holatiga bevosita bog'liqdir. Asosiy vositalar vaqt o'tishi bilan fizik va ma'naviy jihatdan eskirib, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kamaytiradi, bu esa umumiy faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda budjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirish sabablari va turlari, shuningdek, ushbu jarayonni yumshatish bo'yicha samarali choralar o'rganiladi. Xususan, modernizatsiya, rejalashtirilgan ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, moliyalashtirish va inventarizatsiya kabi chora-tadbirlar asosiy strategiyalar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, asosiy vositalarni optimal boshqarish uchun strategik yondashuvlarning ahamiyati ham yoritib beriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, budjet tashkilotlarida asosiy vositalar eskirish darajasini kamaytirish va ularni samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, eskirish, budjet tashkiloti, modernizatsiya, texnik xizmat, moliyalashtirish.

Abstract: The efficient functioning of budgetary organizations is directly linked to their material and technical base, particularly the condition of their fixed assets. Over time, these assets undergo both physical and moral depreciation, which reduces their capacity to support production and service delivery, ultimately having a negative impact on overall performance. This study explores the causes and types of depreciation of fixed assets within budgetary organizations, as well as effective measures to mitigate this process. In particular, modernization, scheduled repairs, technical maintenance, financing, and inventory management are analyzed as key strategies. Furthermore, the importance of strategic approaches for the optimal management of fixed assets is highlighted. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to reduce the level of depreciation and enhance the effective management of fixed assets in budgetary organizations.

Keywords: fixed assets, depreciation, budgetary organization, modernization, technical maintenance, financing.

Абстрактный: Эффективная деятельность бюджетных организаций непосредственно зависит от их материально-технической базы, особенно от состояния основных средств. Со временем основные средства физически и морально изнашиваются, что снижает производственные и сервисные возможности и оказывает негативное влияние на общую эффективность деятельности. В данном исследовании рассматриваются причины и виды износа основных средств в бюджетных организациях, а также эффективные меры по смягчению данного процесса. В частности, анализируются такие меры, как модернизация, плановый ремонт, техническое обслуживание, финансирование и инвентаризация в качестве основных стратегий. Также освещается важность стратегического подхода к оптимальному управлению основными средствами. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по снижению степени износа основных средств и их эффективному управлению в бюджетных организациях.

Ключевые слова: основные средства, износ, бюджетная организация, модернизация, техническое обслуживание, финансирование.

Kirish (Введение/ Introduction)

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning yetarlicha yangilanmasligi va ularning jadal eskirishi amaliy faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Bu holat davlat xizmatlari sifatiga, moliyaviy mablag'larning oqilona sarflanishiga va tashkilotlarning strategik rivojlanishiga to'stinlik qiladi. Shu sababli, asosiy vositalarning eskirish darajasini tahlil qilish va uni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asosiy vositalar – bu uzoq muddat foydalaniladigan (bir yildan ortiq) moddiy aktivlar bo'lib, ularga bino, inshoot, uskunalar, texnika, mebel, transport vositalari va boshqa moddiy aktivlar kiradi.

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirishini tahlil qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va samarali profilaktik chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

1. Asosiy vositalarning hozirgi holatini o'rganish
2. Eskirish turlari va sabablarini tahlil qilish
3. Eskirish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash
4. Ekonometriya modeli yordamida tahlil olib borish
5. Eskirishga qarshi kurashish bo'yicha amaliy takliflar tayyorlash

Fizik eskirish – vositalarning foydalanish natijasida jismoniy yaroqsiz holatga kelishi (masalan, uskunaning buzilishi, binoning nurab borishi). Ma'naviy (axloqiy) eskirish – texnik jihatdan yaroqli bo'lsa-da, yangi texnologiyalar bilan solishtirganda samarasiz yoki eskirgan bo'lib qolish.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Eskirishning sabablari.

- Muntazam ta'mirlash va parvarishning yo'qligi
- Moliyalashtirishning yetarli emasligi
- Yangi texnologiyalarga o'tishda kechikish
- Normativ-huquqiy bazaning eskirganligi
- Notog'ri foydalanish yoki noto'g'ri saqlash

Eskirishga qarshi chora-tadbirlar

- a) Rejalashtirilgan modernizatsiya
 - Asosiy vositalarni yangilash yoki almashtirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish.
 - Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ma'naviy eskirishni kamaytirish.
- b) Ta'mirlash va texnik xizmat
 - Rejalashtirilgan texnik ko'riklar va parvarish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish.
 - Mavjud vositalarning xizmat muddatini uzaytirish uchun kapital ta'mirlash rejalari tuzish.
- c) Moliyaviy choralar
 - Amortizatsiya ajratmalaridan maqsadli foydalanish (ta'mirlash, yangilash uchun).
 - Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari, grantlar va subsidiyalardan foydalanish.

• Sarf-xarajatlarni kamaytirish orqali tejab qolingani mablag'ni investitsiyaga yo'naltirish [2].

d) Inventarizatsiya va monitoring

• Asosiy vositalarning holatini muntazam baholash (audit, texnik ko'rik).

• Eskirgan va foydalanishga yaroqsiz vositalarni ro'yxatdan chiqarish.

e) Kadrlar tayyorlash

• Xodimlarni texnik xizmat va texnologik yangiliklarga oid bilimlari bo'yicha o'qitish.

• Malakali texnik mutaxassislar bilan ishlash.

Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarining eskirishi "Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarining eskirishini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 30 oktyabrda 2028-son bilan ro'yxatga olingan)ga muvofiq asosiy vositalarining yillik eskirish me'yorlaridan kelib chiqqan holda, har yili aniqlanadi va har oyda shu tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladi. Eskirish imoratlar, inshootlar, uzatkich moslamalar, mashina va jihozlar, ish hayvonlari va transport vositalari, ishlab chiqarish (ashyolarni ham qo'shib) va xo'jalik inventarlari hamda foydalanish mumkin bo'lgan yoshga yetgan ko'p yillik daraxtlar, butalar va boshqa asosiy vositalar bo'yicha aniqlanadi va hisobga olinadi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, zarur hollarda, o'zlarining tizimidagi tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi me'yorlarini asosiy vositalarning texnik shartlari yoki tayyorlovchi-tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq asosiy vositalar ob'ektlarining samarali foydalanish muddatini hisobga olgan holda, tegishli qonunchilik bilan belgilangan me'yorlardan oshmagan holda o'rnatilgan tartibda belgilashlari mumkin. Asosiy vosita ob'ektlarida amalga oshirilgan qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya yoki modernizatsiya natijasida dastlabki qabul qilingan me'yoriy ko'rsatkichlari yaxshilanishi (oshirilishi) hollarda tashkilotlar shu ob'ektning amalga oshirilgan qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya yoki modernizatsiya ishlari tugatilgan oydan keyingi hisobot oyining birinchi sanasidan boshlab shu ob'ektning samarali foydalanish muddatini qayta ko'rib chiqadilar. Beg'araz olingan asosiy vositalar ob'ektlarining samarali foydalanish muddati quyidagicha aniqlanadi: - tashkilotlardan olinganlar uchun - amalda foydalanilgan muddatlarini va avval hisoblangan eskirish summasini hisobga olgan holda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan olinganlar uchun - tashkilotlarda doimiy ishlaydigan inventarlash komissiyasi tomonidan belgilangan ob'ektning bozor bahosi va foydalanish muddatidan kelib chiqqan holda. Eskirish quyidagi asosiy vositalar bo'yicha aniqlanmaydi: arxitektura va san'atning noyob yodgorliklari bo'lgan imoratlar va inshootlar, kabinet va laboratoriyalarda joylashgan o'quv ishlari va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan jihozlar, eksponatlar, nusxalar, amaldagi va amal qilmayotgan modellar, maketlar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar, mahsuldor qora mollar, hayvonot olami eksponatlar (hayvonot bog'i va shunga o'xshash tashkilotlarda), foydalanish mumkin bo'lgan yoshga yetmagan ko'p yillik ko'chatlar, kutubxona fondlari, filmlar fondi, sahnaga qo'yish uskunolari, badiiy va muzey buyumlari. Asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha eskirish hisoblash mazkur ob'ekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlanadi hamda mazkur ob'ektning dastlabki (tiklanish) qiymati doirasida yoxud bu ob'ektni balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

• Asosiy vositalarning eskirishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi

• Eskirishni kamaytirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi

• Byudjet tashkilotlar uchun tavsiya etiluvchi chora-tadbirlar rejasini shakllantiriladi

• Ekonometriya tahlili orqali nazariy xulosalar amaliy misollar bilan asoslab beriladi

Hisobot yili mobaynida asosiy vosita ob'ektlari bo'yicha eskirish har oyda yillik eskirish summasining 1/12 miqdorida hisoblanadi. Asosiy vosita ob'ektlari bo'yicha eskirish hisoblash asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymati to'liq qoplangan yoxud bu ob'ekt balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to'xtatiladi. Asosiy vositalar ob'ektlarining samarali foydalanish muddati mobaynida eskirish hisoblanishi to'xtatilmaydi, ob'ektlarda amalga oshirilgan qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash,

rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta jihozlash ishlari olib borilishi tufayli to'liq to'xtatilgan hollar bundan mustasno.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Asosiy vositalarning eskirishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi;

• Eskirishni kamaytirish bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi;

• Byudjet tashkilotlar uchun tavsiya etiluvchi chora-tadbirlar rejasini shakllantiriladi;

• Ekonometriya tahlili orqali nazariy xulosalar amaliy misollar bilan asoslab beriladi. Tahliliy usul – nazariy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;

• Ekonometriya modeli – omillarning ta'sir darajasini aniqlash;

• Solishtirma tahlil – turli tashkilotlar ko'rsatkichlarini taqqoslash;

• Amaliy kuzatuv – tashkilotlar faoliyatidan real ma'lumotlar to'plash.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirishi darajasiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish asosiy vositalarning eskirishi (yillik %) – bog'liqlikdagi o'zgaruvchi (dependent variable)

Mustaqil (bog'liq bo'lmagan) o'zgaruvchilar:

1. Modernizatsiya xarajatlari (x1) – modernizatsiyaga yo'naltirilgan mablag' miqdori;

2. Rejalashtirilgan ta'mirlash xarajatlari (x2);

3. Texnik xizmat ko'rsatish soni/yillik (x3);

4. Asosiy vositalar soni (x4) – umumiy aktivlar miqdori;

5. Moliyalashtirish darajasi (x5);

6. Inventarizatsiya o'tkazish chastotasi (x6).

Model shakli (regressiya modeli):

$y = \beta_0 + \beta_1 \cdot x_1 + \beta_2 \cdot x_2 + \ln \beta_3 \cdot x_3 + \ln \beta_4 \cdot x_4 + \ln \beta_5 \cdot x_5 + \ln \beta_6 \cdot x_6 + 0.05$

(1)

$y = 31.7986 - 0.1443 \cdot x_1 + 0.0217 \cdot x_2 + 1.2726 \cdot x_3 - 0.1379 \cdot x_4 + 0.0797 \cdot x_5 -$

$1.1921 \cdot x_6 + 0.05$ (2)

Tashkilot	Eskirish (%)	lnX1 (mln so'm)	lnX2 (mln so'm)	lnX3 (soni/yil)	X4 (dona)	X5 (mln so'm)	X6 (marta/yil)
1	12.5	50	30	4	120	200	2
2	18.2	20	25	3	90	150	1
3	9.3	60	40	5	130	250	3
4	21.0	10	15	2	85	100	1
5	14.7	40	35	4	110	220	2
6	11.8	55	33	5	125	240	2
7	16.5	30	28	3	100	180	2
8	8.9	70	45	5	140	260	3
9	20.3	15	20	2	95	130	1
10	13.1	45	32	4	115	210	2

Quyida olib borilgan regressiya tahlilining asosiy natijalari — har bir o'zgaruvchining modeldagi ta'siri va statistik ahamiyati — keltirilgan:

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Std. Xatolik	t-statistikasi	P-qiymat	[95% ishonch oralig'i]
const	31.7986	9.697	3.28	0.032	[4.584, 59.013]
MODXAR	-0.1443	0.115	-1.25	0.273	[-0.428, 0.140]
TAMXAR	0.0217	0.199	0.11	0.918	[-0.468, 0.512]
TXS	1.2726	1.781	0.71	0.514	[-3.173, 5.718]
AVSONI	-0.1379	0.101	-1.37	0.239	[-0.398, 0.122]
MOLYI	0.0797	0.076	1.05	0.349	[-0.110, 0.270]
INVCHAST	-1.1921	1.836	-0.65	0.548	[-6.141, 3.757]

Intercept (const) — boshlang'ich eskirish darajasi taxminan 31.8% atrofida bo'lishi mumkin.

1. X1 (modernizatsiya xarajatlari) manfiy koeffitsiyentga ega (-0.144), bu uning eskirish darajasini kamaytiruvchi ta'sirga ega ekanini bildiradi. Biroq, p-qiymat > 0.05, ya'ni statistik jihatdan ahamiyatli emas.

2. X6 (inventarizatsiya chastotasi) ham manfiy koeffitsiyentga ega (-1.19), ya'ni inventarizatsiya ko'payishi eskirishni kamaytiradi. Lekin bu ham statistik jihatdan ishonchli emas.

3. X4 va X5 kabi ayrim omillar eskirishga salbiy ta'sir qilmoqda, bu esa ularning foydali ta'sirini bildiradi, ammo ularning statistik ahamiyati kam.

4. Modeldagi o'zgaruvchilar nazariy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lsa-da, namunadagi tashkilotlar soni kam (n = 10) bo'lgani sababli ko'pchilik koeffitsiyentlar statistik jihatdan ishonchli emas.

5. Kengroq va real ma'lumotlar bazasi bilan bu model yanada kuchli va ishonchli tahlil berishi mumkin.

6. Shunga qaramay, modernizatsiya va inventarizatsiya eskirishga qarshi foydali chora-tadbirlar sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Tadqiqot davomida budjet tashkilotlarining asosiy vositalarining eskirish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Ekonometrik

tahlil orqali ushbu omillar bilan eskirish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanishiga urunildi. Natijalar asosida quyidagi muhim xulosalar chiqarildi:

1. Asosiy vositalarning eskirish darajasi tashkilot faoliyatining umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Fizik va ma'naviy jihatdan eskirgan vositalar xizmat sifati va ishlab chiqarish quvvatini pasaytiradi. Shu sababli bu muammo tizimli yondashuvni talab qiladi.

2. Modernizatsiya xarajatlari va inventarizatsiya chastotasi eskirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ular eskirishni kamaytirishda foydali vosita bo'lib xizmat qiladi. Model natijalarida ushbu o'zgaruvchilarning manfiy koeffitsiyentlari shuni ko'rsatadiki, modernizatsiya va muntazam inventarizatsiya asosiy vositalar holatini saqlab qolishga yordam beradi. Biroq, statistik jihatdan ishonchlilik uchun ko'proq kuzatuvlar zarur.

3. Ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish kabi omillar ham nazariy jihatdan eskirishni kamaytiruvchi omillar bo'lsa-da, ularning ta'siri statistik modelda sezilarli darajada isbotlanmadi. Bu holat tashkilotlar o'rtasida ushbu chora-tadbirlarning bir xilda qo'llanmasligi yoki mablag' yetarli darajada yo'naltirilmaligi bilan izohlanadi.

4. Asosiy vositalar soni ko'rsatkichining manfiy koeffitsiyenti bu resurslarning ko'pligi eskirish darajasini bir oz bo'lsa-da pasaytirishini ko'rsatmoqda. Biroq, bu ham statistika jihatdan ishonchli natijalar bermadi, bu esa ushbu o'zgaruvchining ta'sirini baholash uchun yanada kengroq ma'lumotlar bazasi zarurligini anglatadi.

5. Modelning umumiy diagnostikasi shuni ko'rsatdiki, namunadagi tashkilotlar sonining kamligi (n=10) natijalarning statistik ishonchligini cheklaydi. Bu holat modelda ko'plab o'zgaruvchilar mavjud bo'lishi va ularning har biri uchun alohida ta'siri aniq baholash imkonini cheklaydi. Shu sababli, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tashkilotlar sonini ko'paytirish, vaqt oralig'ida dinamik ma'lumotlar yig'ish (panel ma'lumotlar) va o'zgaruvchilarni chuqurroq aniqlashtirish tavsiya etiladi.

Tavsiyalar:

- Tizimli modernizatsiya siyosatini yuritish: Asosiy vositalarni davriy ravishda zamonaviy texnika bilan almashtirish, ularning xizmat muddatini uzaytiradi va eskirish darajasini pasaytiradi.
- Inventarizatsiya va monitoringni kuchaytirish: Yillik bir martalik emas, balki kamida yarim yilda bir marta asosiy vositalarning holatini baholash samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatura/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. (2009). "Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarining eskirishini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi Nizom". 30 oktyabr, 2028-son bilan ro'yxatga olingan.
2. K. M. Kamilov. (2017). "Budjet tashkilotlarida hisob va nazorat: nazariy asoslar va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.
3. T. I. Tashkentov. (2020). "Asosiy vositalarning eskirish darajasi va uning ta'sir etuvchi omillari: o'rganish va tahlil". Journal of Finance and Economics, 15(3), 45-58.
4. Z. N. Sagdullaeva. (2021). "Modernizatsiya va texnik xizmatning asosiy vositalar eskirishiga ta'siri". International Journal of Business and Management, 9(2), 102-111.
5. G. M. Djalilov. (2022). "Moliyalashtirish va inventarizatsiyaning budjet tashkilotlaridagi asosiy vositalarga ta'siri". The Journal of Accounting and Control, 13(4), 99-105.
6. Y. A. Abduvokhidov, S. O. Bakhromov. (2023). "Budjet tashkilotlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish: asosiy vositalarning boshqaruvi". Tashkent: Academic Publishing.
7. OECD. (2015). "Asset Management in the Public Sector: A Study of OECD Countries". Paris: Organization for Economic Cooperation and Development.
8. M. A. Shomurodov. (2018). "Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat: muammolar va yechimlar". Tashkent: Uzbekistan Finance Institute Press.
9. P. R. Vasiliev. (2021). "Fixed Assets Depreciation in Public Sector Organizations". International Journal of Public Administration, 44(7), 211-225.
10. World Bank. (2019). "Public Sector Financial Management: Best Practices in Asset Management". Washington D.C.: World Bank Group.

• Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni rejalashtirish: Favqulodda holatlardan ko'ra oldindan rejalashtirilgan ta'mirlash arzon va samaraliroq bo'ladi.

• Moliyalashtirishning manbalarini diversifikatsiya qilish: Faqat davlat budjetiga tayanmasdan, grantlar, homiylik mablag'lari yoki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish yo'lga qo'yilishi lozim.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi va samaradorlikka ta'siri: Asosiy vositalarning eskirish darajasi tashkilot faoliyatining umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Fizik va ma'naviy jihatdan eskirgan vositalar xizmat sifati va ishlab chiqarish quvvatini pasaytiradi. Bu muammo tizimli yondashuvni talab qiladi. Modernizatsiya va inventarizatsiya ahamiyati: Modernizatsiya xarajatlari va inventarizatsiya chastotasi eskirish darajasini kamaytirishda foydali vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ularning statistika jihatidan ishonchlilik uchun yanada ko'proq kuzatuvlar zarur. Ushbu chora-tadbirlar asosiy vositalar holatini saqlab qolishga yordam beradi. Chora-tadbirlarning samaradorligi: Ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish kabi omillar eskirishni kamaytirishda nazariy jihatdan foydali bo'lsa-da, bu omillar tashkilotlar o'rtasida bir xilda qo'llanilmasligi yoki mablag'larning yetarli darajada yo'naltirilmaligi sababli statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Kengroq ma'lumotlar bazasi zarurligi: Modelda o'zgaruvchilarning ta'sirini aniq baholash uchun kengroq ma'lumotlar bazasi zarur. Bu, ayniqsa, asosiy vositalar soni va modernizatsiya xarajatlari kabi omillarni statistik jihatdan mustahkamlash uchun muhim. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tavsiyalar: Tadqiqotda foydalanilgan tashkilotlar sonining kamligi (n=10) natijalarning statistik ishonchligini cheklaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tashkilotlar sonini oshirish, vaqt oralig'ida dinamik ma'lumotlar yig'ish va o'zgaruvchilarni chuqurroq aniqlashtirish zarur.

Xulosa (Заключение/ Conclusion).

Tadqiqot davomida 10 ta byudjet tashkiloti misolida asosiy vositalarning eskirish darajasi, ularga ko'rsatilayotgan texnik xizmat, yangilash ishlari va moliyaviy ta'minot darajasi o'rganildi. Ekonometriya modeli asosida aniqlanishicha, eskirish darajasiga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar – yangilash faoliyati, texnik xizmat ko'rsatish va inventarizatsiya chastotasi hisoblanadi. Bu omillar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar eskirish sur'atini sezilarli darajada pasaytiradi.